



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5**

Google  
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2026-yil, may.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyea Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                               |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA<br>RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI .....                                                                                           | 18 |
| <b>O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich</b><br><b>Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li</b><br>XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY<br>HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI .....   | 22 |
| <b>Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna</b><br>ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....                                                              | 27 |
| <b>Babajanova Dilfuza Abdurasulovna</b><br>HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH<br>DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) .....                              | 32 |
| <b>Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna</b><br>TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING<br>KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....                                    | 41 |
| <b>Barotov Umidjon Mahmud o'g'li</b><br>BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....                                                                               | 48 |
| <b>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</b><br><b>Abdullayeva Gulsanam</b><br>ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL<br>ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK ..... | 53 |
| <b>Kambarova Liliya Ruslanovna</b><br>РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ<br>ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ .....                                                               | 56 |
| <b>Алибекова Саодат Лапасовна</b><br>EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING<br>XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....                                    | 61 |
| <b>Usmonova Dilfuza Iloxomovna</b><br>O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA<br>RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....           | 66 |
| <b>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</b><br>KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP<br>TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....                                                 | 72 |
| <b>Xaydarova Kamola Axinjanovna</b><br><b>Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li</b><br>KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISHLAR: NAZARIY<br>ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....      | 78 |
| <b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b><br><b>Xolmurodova Sevara Asqarovna</b><br>DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....                             | 84 |
| <b>Guzal Navruzova</b><br>KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA<br>MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....                                                       | 88 |
| <b>Mamayeva Diyora Kurbanbayevna</b><br>MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES<br>VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI .....                           | 94 |
| <b>Uralov Eliboy Omonovich</b>                                                                                                                                                                |    |



|                                                                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH .....                                                                | 100 |
| <b>Dilfuza Xamzayeva</b><br><b>Xurshid Xurramov</b>                                                                                                 |     |
| TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH .....                                                                | 106 |
| <b>Otaxonova Roza Boboxon qizi</b>                                                                                                                  |     |
| APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES .....                                                                | 111 |
| <b>Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>                                                                                      |     |
| INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI .....                                                                       | 118 |
| <b>Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich</b>                                                                                                             |     |
| XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....                                                                  | 122 |
| <b>Yahyoxonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li</b>                                                                                                         |     |
| ALOQA KORXONALARI MOLİYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI .....                                      | 128 |
| <b>Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li</b>                                                                                                       |     |
| YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI .....                                                       | 133 |
| <b>Xatamova Gavhar Kiyamovna</b>                                                                                                                    |     |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLİYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... | 138 |
| <b>Seitnazarov Baxadir Muratbaevich</b>                                                                                                             |     |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....                                                    | 144 |
| <b>Ismailov Erkin Faxretdinovich</b>                                                                                                                |     |
| THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT .....                                                                | 148 |
| <b>Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova</b>                                           |     |
| AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI .....                                                                                              | 154 |
| <b>Boltayev Nazarbek Narzullayevich</b>                                                                                                             |     |
| RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI .....                                                                               | 159 |
| <b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>                                                                                                               |     |
| O'ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH .....                                                         | 164 |
| <b>Kurbanova Nigora Abduraxmanovna</b>                                                                                                              |     |
| RESPUBLIKAMIZDA AGROLOGISTIKA XIZMATLARI VA UNING SAMARADORLIGI .....                                                                               | 169 |
| <b>Azizova Dilafruz Habibullayevna</b>                                                                                                              |     |
| INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH VA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR .....                                                                | 172 |
| <b>Ulashev Jahongir Xushmuradovich, Baxriddinova Yulduz Baxriddin qizi</b>                                                                          |     |
| O'ZBEKISTON ENERGETIKA TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....                                                             | 176 |
| <b>Yusupov Ulug'bek Shukrullayevich, Kodirova Xilola Joxongir qizi</b>                                                                              |     |
| IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BYUDJETGA SOLIQ TO'LOVLARINI HISOBGA OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                | 183 |
| <b>Azimova Feruza Payziyevna, Madaminjonov A.</b>                                                                                                   |     |
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEHMONXONA XIZMATLARIDA VAQTNI BOSHQARISHNING XIZMAT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI .....                                   | 188 |
| <b>Tolipova Malika Saloxidinovna</b>                                                                                                                |     |



|                                                                                                                                            |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| AGROKLAsterLARNI TASHKIL ETISH — QISHLOQ XO'JALIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) ..... | 192 |
| <b>Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich</b>                                                                                               |     |
| O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....                                  | 198 |
| <b>M.I. Murodova</b>                                                                                                                       |     |
| “YASHIL” INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH MEXANIZMLARI .....                   | 203 |
| <b>Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li</b>                                                                                                       |     |
| O'ZBEKISTONDA SANOATNING YASHIL TRANSFORMATSIYASI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....               | 211 |
| <b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>                                                                                                        |     |



# O'ZBEKISTONDA SANOATNING YASHIL TRANSFORMATSIYASI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI



**Qo'ziboyev Behzod Hamidovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti,  
Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, PhD.  
Email: [bekhzod.kuziboev@urdu.uz](mailto:bekhzod.kuziboev@urdu.uz)  
ORCID: 0000-0002-8955-5293

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda sanoatning yashil transformatsiyasi va qayta tiklanadigan energiya manbalarining iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot energiya samaradorligini oshirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni o'rganadi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish va ekologik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik ekonometrik yondashuv yordamida baholandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, "yashil" o'tish iqtisodiy barqarorlik va energiya xavfsizligini ta'minlashning asosiy omilidir.

**Kalit so'zlar:** Yashil transformatsiya, sanoat iqtisodiyoti, qayta tiklanadigan energiya, iqtisodiy o'sish, energiya samaradorligi, yashil investitsiyalar, ekologik innovatsiyalar, barqaror rivojlanish, sanoat modernizatsiyasi.

**Abstract.** This article analyzes the green transformation of industry in Uzbekistan and the impact of renewable energy sources on economic growth. The study examines reforms aimed at improving energy efficiency, reducing carbon emissions, and developing renewable energy sources. The relationship between economic growth and environmental indicators was also assessed using an econometric approach. The results show that the green transition is a key factor in ensuring economic stability and energy security.

**Key words:** Green transformation, industrial economy, renewable energy, economic growth, energy efficiency, green investment, environmental innovation, sustainable development, industrial modernization.

**Аннотация.** В данной статье анализируется зеленая трансформация промышленности в Узбекистане и влияние возобновляемых источников энергии на экономический рост. Исследование изучает реформы, направленные на повышение энергоэффективности, сокращение выбросов углерода и развитие возобновляемых источников энергии. Также с помощью эконометрического подхода оценивалась взаимосвязь между экономическим ростом и экологическими показателями. Результаты показывают, что "зеленый" переход является ключевым фактором обеспечения экономической стабильности и энергетической безопасности.

**Ключевые слова:** Зеленая трансформация, промышленная экономика, возобновляемая энергия, экономический рост, энергоэффективность, зеленые инвестиции, экологические инновации, устойчивое развитие, промышленная модернизация.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarining jadal rivojlanishi tabiiy resurslarga bo'lgan talabning oshishiga, energiya iste'molining keskin o'sishiga va ekologik muammolarning keskinlashuviga olib kelmoqda. Xususan, sanoat ishlab chiqarishidan atmosferaga chiqarilayotgan uglerod chiqindilari global iqlim o'zgarishining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Shu sababli, iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik, energiyadan samarali



foydalanish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish tamoyillari bilan uyg'unlashtirish xalqaro iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylandi.

So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlarda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasiga asoslangan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yondashuv iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish sanoat ishlab chiqarishining ekologik samaradorligini oshirish bilan bir qatorda energiya xavfsizligini ta'minlashning asosiy omili sifatida qaraladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat tarmog'i yalpi ichki mahsulotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda sanoat ishlab chiqarish hajmining oshishi energiya resurslariga bo'lgan talabni oshiradi, bu esa iqtisodiyotning yuqori energiya sig'imli bo'lib qolishiga olib keladi. Shu bois sanoatni "yashil" transformatsiya qilish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish iqtisodiy rivojlanishning strategik yo'nalishiga aylanmoqda. Xususan, 2019–2030-yillarga mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" doirasida energetika tizimini modernizatsiya qilish, quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish, sanoat tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, ekologik innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1]. Bundan tashqari, mamlakatda "yashil" investitsiyalarni jalb qilish, ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan institutsional islohotlar sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayon nafaqat ekologik muvozanatni ta'minlaydi, balki sanoat tarmoqlarining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlarda sanoatning yashil transformatsiyasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri bilan bog'liq masalalar keng tadqiq etilmoqda. Xususan, yashil iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy rivojlanishni ekologik barqarorlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan zamonaviy rivojlanish modeli sifatida talqin etiladi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, sanoat tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish iqtisodiy barqarorlikning muhim omilidir (1-jadval).

1-jadval. Sanoatning yashil transformatsiyasi va qayta tiklanuvchi energiya iqtisodiy o'sishga ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili<sup>1</sup>

| Mualliflar                             | Tadqiqot yo'nalishi                                                 | Qo'llanilgan usul               | Asosiy natija                                                                                                     |
|----------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|---------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Apergis va Payne [2]                   | Energiya iste'moli va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik       | Panel kointegratsiya modeli     | Energiya iste'moli iqtisodiy o'sishga uzoq muddatli ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan                          |
| Li va hammualliflar [3]                | Markaziy Osiyoda yashil iqtisodiy tiklanish va resurs samaradorligi | Statistik va ekonometrik tahlil | Qayta tiklanuvchi energiya va resurs samaradorligi ekologik barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashi qayd etilgan  |
| Mostafaeipour va hammualliflar [4]     | O'zbekistonda shamol energetikasi salohiyati                        | Texnik-iqtisodiy baholash       | Nukus, Buxoro va Qo'ng'iro't hududlari shamol energetikasi uchun yuqori salohiyatga ega ekanligi aniqlangan       |
| Huang va hammualliflar [5]             | Energiya iste'moli va karbon neytralligi siyosati                   | ARDL va regressiya tahlili      | Energiya iste'moli tarkibining o'zgarishi qayta tiklanuvchi energiya rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi aniqlangan |
| BRICS davlatlari bo'yicha tadqiqot [6] | Qayta tiklanuvchi energiya iqtisodiy o'sishga ta'siri               | ARDL modeli                     | Qayta tiklanuvchi energiya iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan        |
| UNEP tadqiqotlari [7]                  | Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish                          | Nazariy-konseptual yondashuv    | Yashil iqtisodiyot ekologik xavflarni kamaytirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlangan   |
| OECD tadqiqotlari [8]                  | Yashil transformatsiya va yashil investitsiyalar                    | Tahliliy baholash               | "Yashil" investitsiyalar va ekologik innovatsiyalar sanoat samaradorligini oshirishi qayd etilgan                 |

1 Muallif ishlanmasi



Mazkur jadvalda Apergis va Payne (2010) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot panel kointegratsiya modeli yordamida MDH mamlakatlarida energiya iste'moli va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qildi. Natijalar energiya iste'moli iqtisodiy o'sishga uzoq muddatli ijobiy ta'sir ko'rsatishini va energiya siyosati iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda tabiiy resurslardan samarali foydalanish va "yashil" iqtisodiyotni tiklash o'rtasidagi bog'liqlik alohida ko'rib chiqilgan. Li va hammualliflarning (2023) tadqiqotida resurs tejamlorligi va qayta tiklanadigan energiyani rivojlantirish mintaqada ekologik barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy omillari sifatida belgilangan.

O'zbekistonda olib borilayotgan tadqiqotlarda energetika tizimini modernizatsiya qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi ham tahlil qilingan. Mostafaeipour va hammualliflarning (2021) tadqiqoti O'zbekistonda shamol energiyasidan foydalangan holda vodorod ishlab chiqarish salohiyatini baholadi va mamlakatning ayrim hududlari qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega ekanligini aniqladi. Tadqiqotda texnik, iqtisodiy va ekologik omillarga asoslanib, Nukus, Buxoro va Qo'ng'iro't hududlari istiqbolli hududlar sifatida belgilangan.

Bundan tashqari, Huang va hammualliflarning (2024) tadqiqotida O'zbekiston va Xitoy misolida energiya iste'moli, daromad darajasi va uglerod neytralligi siyosati o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, iqtisodiy transformatsiya jarayonida energiya iste'moli tarkibidagi o'zgarishlar qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoatning "yashil" transformatsiyasi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish iqtisodiy o'sish, energiya xavfsizligi va ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda yashil sanoatga o'tish va qayta tiklanadigan energiya omillarining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash uchun keng qamrovli ilmiy-uslubiy yondashuv qo'llanilgan. Tadqiqotda tizimli tahlil, statistik kuzatuv, iqtisodiy taqqoslash, ekonometrik modellash va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning axborot bazasi O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi [9], Jahon banki [10], Xalqaro energetika agentligi (IEA) [11], Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya manbalari agentligi (IRENA) [12], IHTT va boshqa xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlaridan iborat. Tadqiqotda asosan sanoat ishlab chiqarish hajmi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi, energiya iste'moli, uglerod chiqindilari va yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlaridan foydalanilgan. Iqtisodiy o'sish omillari va yashil energiya o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun tahlilda ko'p omilli regressiya modeli qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar so'nggi yillarda amalga oshirilmoqda. Mamlakat iqtisodiyotida sanoat ulushining ortib borishi energiya iste'molining ham sezilarli darajada oshishiga olib kelmoqda. Shu bois, sanoatning yashil transformatsiyasi iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Maqolada iqtisodiy o'sish va qayta tiklanadigan energiya omillari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun ko'p omilli regressiya modeli qo'llanildi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 REN + \beta_2 IND + \beta_3 CO_2 + \beta_4 ENE + \varepsilon \quad (1)$$

bu yerda:

$Y$  – iqtisodiy o'sish (YaIM);

$REN$  – qayta tiklanuvchi energiya ulushi;

$IND$  – sanoat ishlab chiqarishi hajmi;

$CO_2$  – karbon emissiyasi;

$ENE$  – energiya iste'moli;

$\varepsilon$  – tasodifiy xatolik hadi.

Ushbu model qayta tiklanadigan energiya va sanoat transformatsiyasining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash uchun ishlatilgan. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi va energiya samaradorligi ko'rsatkichlari iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2-jadval. O'zbekistonda sanoat va qayta tiklanuvchi energiya ko'rsatkichlari dinamikasi<sup>2</sup>

| Yillar | Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%) | Sanoat o'sishi (%) | CO <sub>2</sub> emissiyasi (mln tonna) | Energiya samaradorligi (%) |
|--------|---------------------------------------|--------------------|----------------------------------------|----------------------------|
| 2020   | 8.0                                   | 1.1                | 112                                    | 52                         |
| 2021   | 9.5                                   | 8.7                | 115                                    | 54                         |
| 2022   | 11.2                                  | 6.5                | 113                                    | 57                         |
| 2023   | 14.9                                  | 6.3                | 109                                    | 60                         |
| 2024   | 18.5                                  | 6.8                | 104                                    | 64                         |
| 2025   | 22.0                                  | 7.2                | 98                                     | 68                         |

2-jadvaldagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya ulushi ortishi bilan energiya samaradorligi ko'rsatkichlari yaxshilangan. Xususan, 2020-yilda qayta tiklanuvchi energiya ulushi 8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 22 foizga yetdi. Ushbu davrda uglerod chiqindilari 112 million tonnadan 98 million tonnaga kamaydi. Bu sanoat tarmoqlariga yashil texnologiyalarni joriy etish va energiya manbalarini diversifikatsiya qilishning ijobiy natijasidir. Ekonometrik tahlil natijalari ham qayta tiklanuvchi energiya ulushi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni ko'rsatdi. Regressiya modeliga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya ulushining ortishi sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, uglerod chiqindilari asta-sekin kamaygan, bu esa turli sanoat tarmoqlarida energiya tejoychi texnologiyalar va ekologik yangilanishlarning samarali joriy etilganidan dalolat beradi.

Tahlilda energiya samaradorligini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichdan ham foydalanildi:

$$EE = \frac{GDP}{EC} \quad (2)$$

bu yerda:

*EE* – energiya samaradorligi;

*GDP* – yalpi ichki mahsulot;

*EC* – umumiy energiya iste'moli;

Mazkur formula asosida o'tkazilgan hisob-kitoblar sanoat ishlab chiqarishida energiya sarfini kamaytirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishini ko'rsatdi.

3-jadval. Regressiya tahlili natijalari<sup>3</sup>

| O'zgaruvchilar                          | Koeffitsient | t-statistika | P-qiyamat | Ta'sir yo'nalishi |
|-----------------------------------------|--------------|--------------|-----------|-------------------|
| Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (REN) | 0.48         | 3.92         | 0.001     | Ijobiy            |
| Sanoat ishlab chiqarishi (IND)          | 0.56         | 4.11         | 0.000     | Ijobiy            |
| CO <sub>2</sub> emissiyasi              | -0.31        | -2.84        | 0.012     | Salbiy            |
| Energiya iste'moli (ENE)                | 0.27         | 2.45         | 0.021     | Ijobiy            |
| Konstanta                               | 1.74         | 1.93         | 0.067     | —                 |

Regressiya natijalariga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va sanoat ishlab chiqarishining ulushi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining 1 foizga oshishi iqtisodiy o'sishni o'rtacha 0,48 foizga oshirishi aniqlandi. Shu bilan birga, uglerod chiqindilarining ko'payishi iqtisodiy ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, sanoat korxonalarida energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va mahsulotning raqobatbardoshligini oshiradi. Xususan, metallurgiya, kimyo va qurilish sanoatidagi modernizatsiya loyihalari nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, balki ishlab chiqarish samaradorligini ham oshiradi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda sanoatning "yashil" transformatsiyasi iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, energiya xavfsizligini mustahkamlash va ekologik barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biridir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston sanoat rivojlanishining an'anaviy modelidan ekologik toza va resurslarni tejaydigan modelga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Xususan, yashil transformatsiya

2 Manba: IEA (2024), IRENA (2024), O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

3 Manba: World Bank, IEA, IRENA va O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallifning ekonometrik hisob-kitoblari.



sanoat siyosatining asosiy tarkibiy qismiga aylanmoqda, chunki sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori energiya xarajatlari iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlillar qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish nafaqat energiya tizimining barqarorligini oshirishi, balki ishlab chiqarish xarajatlarini ham kamaytirishini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida qayta tiklanadigan energiya manbalarini sanoat tarmoqlariga joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishi, balki tashqi energiya bozorlariga qaramlikni ham kamaytirishi aniqlandi. Shu bilan birga, yashil texnologiyalarni joriy etgan sanoat korxonalari yuqori resurs samaradorligini namoyish etadi, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va eksport salohiyatini oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, energiyani ko'p talab qiladigan tarmoqlarda modernizatsiya jarayonlari bir vaqtning o'zida iqtisodiy va ekologik samaradorlikni ta'minlaydi.

Shuningdek, sanoatning yashil transformatsiyasi nafaqat energetika bilan bog'liq jarayon, balki investitsiya muhiti, innovatsiyalar, institutsional boshqaruv va ekologik siyosat bilan ham chambarchas bog'liq. Shu bois bu jarayonni samarali tashkil etish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- sanoat korxonalarida energiya auditi tizimini joriy etish va energiya samaradorligi ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish;
- mintaqaviy sanoat zonalarida mini-quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish orqali mahalliy energiya ta'minoti tizimini rivojlantirish;
- ekologik toza texnologiyalarni import qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalarni kengaytirish;
- sanoat chiqindilarini qayta ishlashga asoslangan "aylanma iqtisodiyot" tamoyillarini rivojlantirish;
- oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida yashil iqtisodiyot va sanoat ekologiyasi sohasida ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda yashil sanoat loyihalariga ustuvorlik berish.

Umuman olganda, sanoatning yashil transformatsiyasi O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash, ekologik xavflarni kamaytirish va global "yashil" iqtisodiyot tizimiga integratsiyalashuvni jadallashtirishning asosiy omillaridan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ–4477-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. Nicholas Apergis, James E. Payne, Renewable energy consumption and economic growth: Evidence from a panel of OECD countries, Energy Policy, Volume 38, Issue 1, 2010, Pages 656-660, ISSN 0301-4215, <https://doi.org/10.1016/j.enpol.2009.09.002>
3. Zengrong Li, Yanqiu Wu, Ehsan Rasoulinezhad, Yishen Sheng, Chunyu Bi, RETRACTED: Green economic recovery in central Asia by utilizing natural resources, Resources Policy, Volume 83, 2023, 103621, ISSN 0301-4207, <https://doi.org/10.1016/j.resourpol.2023.103621>
4. Ali Mostafaeipour, Seyyed Shahabaddin Hosseini Dehshiri, Seyyed Jalaladdin Hosseini Dehshiri, Khalid Almutairi, Rani Taher, Alibek Issakhov, Kuaanan Techato, A thorough analysis of renewable hydrogen projects development in Uzbekistan using MCDM methods, International Journal of Hydrogen Energy, Volume 46, Issue 61, 2021, Pages 31174-31190, ISSN 0360-3199, <https://doi.org/10.1016/j.ijhydene.2021.07.046>
5. Weiping Huang, Ghansham Das, Azer Dilanchiev, Zeynab Giyasova, Mangi Gu, Role of multiple energy sources under carbon neutrality goals, income and energy consumption in transition economies: A joint case study between China and Uzbekistan, Energy, Volume 309, 2024, 132803, ISSN 0360-5442, <https://doi.org/10.1016/j.energy.2024.132803>
6. Litu Sethi, Ugur Korkut Pata, Biswanath Behera, Malayaranjan Sahoo, Narayan Sethi, Sustainable future orientation for BRICS+ nations: Green growth, political stability, renewable energy and technology for ecological footprint mitigation, Renewable Energy, Volume 244, 2025, 122701, ISSN 0960-1481, <https://doi.org/10.1016/j.renene.2025.122701>
7. UNEP. (2021). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. United Nations Environment Programme. <https://www.unep.org/resources/report/towards-green-economy-pathways-sustainable-development-and-poverty-eradication>
8. OECD. (2023). Green Growth Indicators for Central Asia Countries. Organisation for Economic Co-operation and Development. <https://www.oecd.org>
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Sanoat va energetika statistikasi. <https://stat.uz>
10. World Bank DataBank. (2024). World Development Indicators. <https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators>
11. International Energy Agency (IEA). (2024). Uzbekistan Energy Profile. <https://www.iea.org/reports/uzbekistan-energy-profile>
12. International Renewable Energy Agency (IRENA). (2024). Renewable Capacity Statistics 2024. <https://www.irena.org/Publications/2024/Mar/Renewable-capacity-statistics-2024>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---